

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
TILSHUNOSLIKDA ALLYUZIYA HODISASI VA UNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

To‘xtasinova Xurshida Xayrullo qizi
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti
xurshida1207@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985296>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik va lingvopoetika doirasida allyuziya hodisasining mohiyati, nazariy asoslari hamda badiiy matndagi funksional ahamiyati yoritiladi. Allyuziya intertekstual birlik sifatida tahlil qilinib, uning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, o‘zbek badiiy nutqida allyuziyaning qo‘llanishiga doir misollar orqali mazkur hodisaning estetik va kommunikativ vazifalari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: allyuziya, intertekstuallik, lingvopoetika, presuppozitsiya, allyuziv matn, stilistika.

Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, теоретические основы и функциональное значение феномена аллюзии в рамках лингвистики и лингвопоэтики. Аллюзия анализируется как интертекстуальная единица, раскрывая ее семантические, прагматические и стилистические особенности. Также эстетические и коммуникативные функции этого феномена показаны на примерах использования аллюзии в узбекской художественной речи.

Ключевые слова: аллюзия, интертекстуальность, лингвопоэтика, пресуппозиция, аллюзивный текст, стилистика.

Abstract. This article examines the essence, theoretical foundations, and functional significance of the phenomenon of allusion within the framework of linguistics and linguapoetics. Allusion is analyzed as an intertextual unit, revealing its semantic, pragmatic, and stylistic features. The aesthetic and communicative functions of this phenomenon are also demonstrated through examples of the use of allusion in Uzbek literary speech.

Keywords: allusion, intertextuality, linguapoetics, presupposition, allusive text, stylistics.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda matni faqat grammatik va leksik birliklar yig‘indisi sifatida emas, balki madaniy, tarixiy va kognitiv axborotni mujassamlashtirgan murakkab tizim sifatida o‘rganish ustuvor yo‘nalishga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, allyuziya hodisasi matnning yashirin semantik qatlamlarini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Allyuziya badiiy va publitsistik nutqda muallif fikrini ixcham, ammo ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Allyuziya tushunchasining nazariy asoslari

“Allyuziya” termini lotincha *allusio* – “ishora qilmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, lug‘atda quyidagicha ta’rif beriladi: “Allyuziya-muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura. Lingvomadaniyatshunoslikda allyuziya ikki madaniy-semiotik maydonning o‘zaro munosabati nuqtayi nazaridan o‘rganiladi.”⁹⁴

Allyuziya ko‘pincha intertekstual hodisa sifatida talqin qilinadi. Chunki u bir matnning boshqa matnlar bilan semantik aloqasini ta’minlaydi. Bunda muallif va adresat o‘rtasida umumiy madaniy fond bilimlarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Allyuziyaning lingvistik xususiyatlari

Lingvistik jihatdan allyuziya quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Implitsitlik xususiyati. Allyuziya ochiq izoh talab qilmaydi, ommaga ma’lum bo‘lgan badiiy, tarixiy, mifologik yoki kulturologik fakt yashirin holda beriladi. Ijodkor tomonidan aytilmoqchi bolgan fikrni o‘quvchi o‘zi anglab olishi zarurdir.

Baxtga yor doim *Navoiy* toki

Jomiy bor ekan,

Biz ular qo‘ygan tamaldan,

O‘zbeгим tojik bilan. (Abdulla Oripov)

⁹⁴ Xudoyberganova D. “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, lug‘at, Toshkent 2024, 10-bet

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Yuqoridagi misralarda o‘zbekning buyuk shoiri Alisher Navoiy va fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy o‘rtasidagi do‘stlikni misol keltirish orqali o‘zbek va tojik xalqlarining ko‘p asrlik birodarligiga ishora qilingan.

2.Presuppozitivlik xususiyati.Allyuziv matnni to‘liq anglash uchun oldindan mavjud bilimlarga tayaniladi. Allyuziv manbada nutq ishtirokchilariga oldindan ma’lum voqelik o‘z aksini topmagan bo‘lsa, allyuziya ko‘rsatkichini anglash qiyinchiligi yuzaga keladi.

Zabtga olib keng Osiyoni,

Bir zot chiqdi mag‘rur,davongir,

Ikki asr yarim dunyoni

Zir qaqshatdi Buyuk jahongir. (Abdulla Oripov)

Abdulla Oripov qalamiga mansub yuqoridagi parchada milliy davlatchiligimiz rivojiga katta hissa qo‘shgan,o‘z davrida buyuk davlatga asos solgan siymolardan biri Amir Temurga ishora qilingan bo‘lib, ushbu tarixiy shaxs hamda uning barpo etgan davlati haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmagan o‘quvchi muallifning fikrini anglashi mushkul.

3.Semantik kengayish. Allyuziya orqali so‘z yoki iboraning ma’nosi kengayadi, qo‘shimcha assotsiatsiyalar yuzaga keladi.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,

Ana, yurishibdi kiyganlari zar,

Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar -

Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor... (Muhammad Yusuf)

Adabiyotda assotsiatsiya — badiiy tasvirlanayotgan narsa, hodisa yoki so‘zning o‘quvchi yoki yozuvchi ongida boshqa bir tushuncha, xotira yoki tuyg‘uni uyg‘otishi, bog‘lashi jarayoni. Bu obrazli tafakkurning asosi bo‘lib, badiiy obrazlarni yaratishda, yashirin ma’no va his-tuyg‘ularni ifodalashda qo‘llaniladi. Shoir assotsiativ bog‘lanishlar orqali *mehrobingdan chiqqan chayonlar* birikmasiga yangi mazmun va assotsiativ ma’no yuklaydi

4.Stilistik ta’sirchanlik.Allyuziv birliklar nutqni yanada ta’sirchan qiladi va unga badiiylilik, kinoya yoki baholash ohangi qo‘shadi.

Aslida tuproqni odil tabiat,

Taqsim aylagan-ku, yer yuziga teng

Nechun bu tuproq, deb yig‘ladi Furqat,

O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen? (Abdulla Oripov)

Ushbu allyuziv birlik orqali kitobxon hissiyotiga, tasavvuriga va estetik didiga ta’sir o‘tkazish, muallif g‘oyasini kuchli, obrazli hamda emotsional yetkazish maqsad qilib olingan. Furqat, Qashqar singari allyuziv nomlar badiiy nutqning mazmundorligi va jozibasini oshirmoqda.

O‘zbek she’riy matnida allyuziya

O‘zbek adabiyotida allyuziya ko‘pincha diniy rivoyatlar, tarixiy shaxslar va mumtoz adabiy obrazlar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, “Ayub sabri” birikmasi Qur’ondagi Ayub payg‘ambar qissasiga allyuziya bo‘lib, nihoyatda katta sabr-toqat ma’nosini anglatadi. Yoki “Yusufdek go‘zal” ifodasi go‘zallik timsoli sifatida qo‘llanadi.

Bunday birliklar nutqni ixchamlashtiradi, shu bilan birga o‘quvchida kuchli emotsional va estetik ta’sir uyg‘otadi.

Allyuziya quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.Muallif pozitsiyasini bilvosita ifodalash.Allyuziya hodisasi yordamida muallif g‘oyalari ,his-tuyg‘ulari va fikrlarini o‘z asarida ochiqdan-ochiq bayon etmasdan, ma’lum bir tarixiy yoki adabiy qahramon,voqea,obrazga ishora qilish orqali o‘quvchiga taqdim etadi.Bu o‘z navbatida o‘quvchiga muallif pozitsiyasini yanada chuqurroq anglash uchun xizmat qiladi.

G‘alaba amri-la, mag‘lub nemisning

Generali qo‘l qo‘ydi. Uch sekund faqat...

Shu mal‘un imzoda odamlar o‘qir

Million yil fashistning umriga la‘nat. (G‘afur G‘ulom)

“Vaqt” she’ridan olingan ushbu parchada Gitlarning mag‘lubiyatni tan olib imzo chekishi uchun bor- yo‘g‘i uch sekund vaqt ketganini ta’kidlash orqali shoir qisqagina vaqtda insoniyat tarixida ulkan voqealarga sabab bo‘lgan sekundning naqadar ahamiyatli ekanligini ifodalaydi.

2.Baholash va kinoyani kuchaytirish. Mualliflar allyuziv birliklardan foydalanib, ma’lum bir qadriyat yoki g‘oyalarni,ijtimoiy-siyosiy hodisalarni baholashga undaydilar. Allyuziv birliklar yordamida kinoya vujudga keladi, piching va istehzo o‘quvchiga yanada kuchliroq ta’sir etadi.

Shuhrat qoldirmoqqa Gerostratdek

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Diana ma’badin yoqmoq shart emas.

Ko‘plarning baxtiga o‘zlikni jamlab,

Shu ulug‘ binoga bir g‘isht qo‘ysak bas. (G‘afur G‘ulom)

Shoir Gerostatning o‘tmishda qilgan mash‘um jinoyatini shuhrat qoldirish uchun bo‘lganligini kinoya orqali ifodalayapti.

3. Matnning estetik qiymatini oshirish. Allyuziv matn o‘quvchiga nafaqat ma’lumot beradi, balki unda estetik tuyg‘ularni uyg‘otadi va zavq bag‘ishlaydi. Allyuziya matndagi tasvirni jonli va bo‘yoqdor bo‘lishiga yordam beradi.

Amerika — sehrli diyor,

Uxlar edi Kolumb ham hali,

Dengiz ortin yoritdi ilk bor,

Beruniyning aql mash‘ali.

Kolumbda bor alamim manim,

O‘zbekiston, Vatanim manim. (Abdulla Oripov)

Yuqoridagi misralar orqali shoir Amerikani kashf etgan jahongashta Kolumb va undan 500 yil avval dengiz orqasidagi noma’lum qit‘a haqida bashorat qilgan buyuk bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy obrazlarini yonma-yon keltirish orqali buyuk bobolarimizga bo‘lgan ehtiromini yanada kuchliroq ifodalagan va matnning badiiy-estetik qiymatini oshirgan

4. O‘quvchini faol tafakkurga undash. Allyuziyalar o‘quvchini muayyan voqea-hodisalar haqida qayta fikrlashga, uni chuqurroq anglashga undaydi. Bu jarayon ,o‘z navbatida, shaxsiy o‘shishga, tafakkurni rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Mashrab osilganda qayoqda eding?

Cho‘lpon otilganda qayoqda eding?

Surishtirganmiding Qodiriyi yo

Qalqon bo‘lganmiding kelganda balo?

Qarshingda hasratli o‘yga tolaman,

Qachon xalq bo‘lasan, ey sen, olomon?! (Abdulla Oripov)

Bu satrlar orqali shoir o‘quvchini o‘ylashga, mushohada qilishga undaydi va o‘z-o‘zini tahlil qilishga chaqiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, allyuziya tilshunoslik va lingvopoetika nuqtayi nazaridan murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, matnning semantik chuqurligini ta’minlaydi. U nafaqat badiiy nutqning bezagi, balki muhim kommunikativ va pragmatik vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi allyuziv birliklarni tizimli o‘rganish milliy madaniyat va til tafakkurining o‘ziga xos jihatlarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Москвин И.П. Аллюзия как фигура интертекста //Грани познания : электрон.науч.образоват.журн.2014.№1 (28)
2. Фадеева Г.М. Общекультурная и текстовая значимость литературных аллюзий в художественном тексте // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки.2020.
3. Abdulla Oripov. Saylanma. //Tafakkur qanoti. 2019
4. Muhammad Yusuf. Saylanma. //Sharq. 2019
5. Xudoyberganova D. “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”, lug‘at, Toshkent 2024
6. Yo‘ldoshev M. Lingvopoetika asoslari //Magistrlik dissertatsiyasi. 2020
7. G‘afur G‘ulom. She‘rlar //Mutolaa. 2024